

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 2522,8 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning yanvar-mart oylarida 12,9 ming kishiga yoki 0,5 %ga o'sgan.


E'tibor bering: 2019 yil yanvar-mart

- Aholi soni **12,9** ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **11,1** ming nafarni tashkil etdi.
- **4,0** mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,5** mingta nikoh va **1,1** mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.


Toshkent shahar aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-mart)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 aprel holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)



Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 360,9 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,3 %ni) va Shayxontoxur tumanida 339,1 ming kishini (13,4 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 34,5 ming kishini (1,4 %) va Yakkasaroy tumanida 119,1 ming kishi (4,7 %) tashkil etdi.




Tumanlar kesimida doimiy aholi soni

(2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishida)




Toshkent shahar aholi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 2522,8 ming kishi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 1,9 foizga ko'paydi.



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 3,7 %ga, Yashnobod tumanida 2,5 %ga, Bektemir tumanida 2,4 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Uchtepa tumanida 1,2 % ni hamda Mirzo Ulug'bek tumanida 1,3 %ni tashkil etdi.

Demografik holat

Toshkent shahri aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishida)



Ma'lumot uchun

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha ayollar soni 1291,0 ming kishi. Erkaklar soni esa 1231,8 ming kishini tashkil qildi. Ko'rsatkichlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, ayollar soni 2.4% ga erkaklar sonidan ko'proq.

	Doimiy aholi soni (ming kishi)	shundan:			
		erkak (ming kishi)	ayol (ming kishi)	erkak (foizda)	ayol (foizda)
Toshkent shahar	2 522,8	1 231,8	1 291,0	48,8	51,2
tumanlar:					
Uchtepa	266,9	131,9	135,0	49,4	50,6
Bektemir	34,5	16,4	18,1	47,5	52,5
Yunusobod	332,0	160,3	171,7	48,3	51,7
Mirzo Ulug'bek	272,1	135,1	137,0	49,7	50,3
Mirobod	137,1	66,4	70,7	48,4	51,6
Shayxontoxur	339,1	166,3	172,8	49,0	51,0
Olmazor	360,9	174,5	186,4	48,4	51,6
Sirg'ali	182,9	87,9	95,0	48,1	51,9
Yakkasaroy	119,1	58,1	61,0	48,8	51,2
Yashnobod	232,4	113,6	118,8	48,9	51,1
Chilonzor	245,8	121,3	124,5	49,3	50,7

Demografik holat

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 11,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 17,8 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-mart oylarida 16,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Uchtepa tumanida (18,1 promilledan 20,8 promillega) Yunusobod (15,9 promilledan 17,8 promillega) Yashnobod tumanida (14,9 promilledan 16,5 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




Qiz bolalar:
5,8
ming nafar



O'g'il bolalar:
5,3
ming nafar



Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-mart

	2018y.	2019y.	O'sish surati foizda
Toshkent shahar	10 111	11 070	109,5
tumanlar:			
Uchtepa	1 175	1 364	116,1
Bektemir	189	201	106,3
Yunusobod	1 274	1 456	114,3
Mirzo Ulug'bek	948	992	104,6
Mirobod	495	541	109,3
Shayxontoxur	1 433	1 516	105,8
Olmazor	1 585	1 739	109,7
Sirg'ali	860	913	106,2
Yakkasaroy	377	372	98,7
Yashnobod	834	943	113,1
Chilonzor	941	1 033	109,8



Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-mart



Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida 4,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 6,4 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-mart oylarida 7,0 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Olmazor (6,5 promilledan 5,3 promillega), Chilonzor (7,3 promilledan 6,3 promillega), Yunusobod (7,2 promilledan 6,4 promillega), Uchtepa (7,2 promilledan 6,6 promillega) va Mirobod (7,9 promilledan 7,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar:
2,2 ming
kishi


Ayollar:
1,8 ming
kishi

Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-mart


	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati foizda
Toshkent shahar	4 239	3 995	94,2
tumanlar:			
Uchtepa	468	435	92,9
Bektemir	63	67	106,3
Yunusobod	581	524	90,2
Mirzo Ulug'bek	497	527	106,0
Mirobod	261	247	94,6
Shayxontoxur	407	405	99,5
Olmazor	564	470	83,3
Sirg'ali	338	325	96,2
Yakkasaroy	160	160	100,0
Yashnobod	473	455	96,2
Chilonzor	427	380	89,0

Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni, kishi
yanvar-mart



Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlarning o'tgan yilga
nisbatan o'sish surati (foizda)
yanvar-mart




Demografik holat

2019 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,4 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 13,5 %i o'simtalardan, 5,6 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,9 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 6,5 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 60,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 19,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,8 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,5 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan va 3,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 7,1 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 1,2 ming kishiga (2018 yilning yanvar-mart oylarida 5,9 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
7,1 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,5 ming nikohlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,6 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uchtepa (129,6%), Olmazor (128,8%), Yakkasaroy (125,0%), tumanlarda tog'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,8 promilleni tashkil etdi.



Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sergili (131,8%), Shayxontohur (120,5%), Yunusobod (117,9%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish surati foizda	2018 y.	2019 y.	O'sish surati foizda
Toshkent shahri	3 069	3 494	113,8	983	1 101	112,0
tumanlar:						
Uchtepa	304	394	129,6	88	116	131,8
Bektemir	61	71	116,4	19	18	94,7
Yunusobod	386	465	120,5	117	138	117,9
Mirzo Ulug'bek	272	321	118,0	113	127	112,4
Mirobod	133	113	85,0	71	72	101,4
Shayxontoxur	442	452	102,3	88	106	120,5
Olmazor	330	425	128,8	112	129	115,2
Sirg'ali	300	283	94,3	109	106	97,2
Yakkasaroy	188	235	125,0	46	54	117,4
Yashnobod	292	336	115,1	112	111	99,1
Chilonzor	361	399	110,5	108	124	114,8

Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik
(yanvar-mart)



Demografik holat


Migratsiya. 2019 yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 1,8 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi 5,8 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida 5,1 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	7,2	7,6
Ko'chib ketganlar	2,1	1,8
Migratsiya saldosi	5,1	5,8



Toshkent shahri tumanlar kesimida aholi migratsiyasi (1000 aholiga nisbatan)



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (1,0 ming kishi), Chilonzor (1,0 ming kishi), Sergeli (0,9 ming kishi) hamda Mirzo Ulug'bek (0,8 ming kishi) tumanlarida (1,7 ming kishi) qayd etildi.

Toshkent shahar statistika boshqirmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: O.Abduraxmanov
(71) 230-88-22